

TTPU da “Qizlar-millat tayanchi” mavzusida Respublika forumi o‘tkazildi.

“11-oktabr – xalqaro qizlar kuni” munosabati bilan Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “Qizlar-millat tayanchi” shiori ostida “Sening tashabbusing-sening kelajaging uchun” mavzusida Respublika forumi o‘tkazildi.

Mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan 200 nafarga yaqin «Qizlarjon» klubining yetakchi qizlari Forum doirasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga tashrif buyurdi.

Tadbirni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari Zulayxo Mahkamova Bahriddinovna kirish so‘zi bilan ochib berdi. Keng davrada qizlar bilan ochiq muloqotda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Ozoda Parpibayeva Abdukadirovna, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘lim vaziri o‘rinbosari Dilshod Kenjayev va boshqa ko‘pgina soha mutahassislari o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etib, yurtimizda qizlarga bo‘lgan e‘tibor, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi ustuvorlik qilayotganini qizlarni, qizlarning iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish, sog‘liqni saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka keng jalb qilish, IT va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash savodxonligini oshirish masalalari bo‘yicha fikr mulohazalar bildirildi.













